

Urf-odat va an'analarning ma'naviyatdagi o'rni.

*Tuyg'unova Dinora Xoliqul qizi,
JDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi (ma'naviyat
asoslari) yo'nalishi 1-bosqich
magistranti*

Inson tom ma'noda ma'lumotli bo'lmog'i uchun unga uch xislat-chuqur bilim, fikrlash ko'nikmasi va oliyjanob tuyg'ular zarur.

Chernishevskiy

Annototsiya: *Ushbu maqolada jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni masalasi tahlil etilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *ma'naviyat, milliy qadryatlar, Urf-odat va an'analar, Milliy axloq normalari- imon, e'tiqot, insof, diyonat, ibo, hayo, or, nomus, g'urur, uyat, iffat, vafo, sadoqat, lafz, subut*

Odam yaratilibdiki, u muttasil ravishda atrofni, o'rab turgan borliqni tadqiq etib kelmoqda. Bu jarayonda odamzot ulkan bilimlar imoratiga asos soldi. Hozirgi insoniyat to'plagan tarixiy tajribasi va bilimi orqali Yer kurrasidan chiqib, koinot sirlarini ham tadqiq etishiga qadam qo'ydi. Bu natijalarning asosi bo'lgan ilmiy bilish jarayoni naqadar mashshaqatli, zahmatli bo'lmasin, odamzod o'z tabiatidagi qiziqishi tufayli bu qiyinchiliklarni yengib kelmoqda. Insoniyatning bu mashshaqatli mehnati orqali biz butun jamiyat, tabiat va koinot haqida ilmiy fundamental bilimlarga ega bo'lib bormoqdamiz. Hozirda bu bilimlarning tarmoqlanishi juda ko'plab fanlarni vujudga keltirib, ular orqali odamlar tabiatdagi eng kichik zarralardan tortib, ulkan narsa - hodisalarning mohiyat tadqiq etmoqda.

Ushbu bilimlar ichida insoniyat ongida to'plangan ma'naviy bilimlar alohida o'rin tutadi. Ma'naviyatga xos bo'lgan bilimlarni biz kisilik jamiyatida uch qisimga bo'lib o'rganamiz: "Ular milliy ma'naviyat, ya'ni bir millatga xos bo'lgan ma'naviyat, ikkinchisi, mintaqaviy ma'naviyat bo'lib, u hududiy jihatdan yaqin bo'lishi bilan birga, urf-odatlar, udumlar, diniy qarashlari va qadriyatlari o'zaro yaqin bo'lgan xalqlarning ma'naviyati hisoblanadi. Uchinsisi esa umuminsoniy ma'naviyat bo'lib u barcha inson zotiga xos bo'lgan ma'naviyatdir"¹.

Inson ma'naviyati asosan o'z xalqining, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, turmush tarzidagi axloq normalari asosida shakllanadi. Keyinchalik shu xalqning buyuk allomalari, yozuvchilarining asarlari, tarbiyaviy o'g'itlari asosida yanada boyiydi. Milliy axloq normalarimiz- imon, e'tiqot, insof, diyonat, ibo, hayo, or, nomus, g'urur, uyat, iffat, vafo, sadoqat, lafz, subut kabi tushunchalar xalqimizning turmush tarzida qonun kabi mustahkam o'ringa ega.

Inson odobi va axloqining buyuk qoidalari hisoblanmish ushbu normalarni, qoidalarni o'zlariga fazilat sanab, ularni o'z hayotining qonuni sifatida qabul qilib kelgan ba'zi insonlar haqida quyidagilarni eshitganman.

Milliy odob-axloq normalarimizni bir umr o'ziga dastur, qoida sifatida qabul qilib unga amal qilib yashab kelayotgan Saltanat momomizning o'g'li harbiy xizmatdan kelganida, quvonganiadan uni kuzatib kelgan komandiri bilan ham bexosdan qo'l berib so'rasib qo'yadi. So'ng uch kun qo'lini sovunlab yuvsa ham ko'ngli to'lmay, bir oy kasal bo'lib qoladi. Nima gap momo, sizga nima bo'ldi, deb so'rashganda, "Men rahmatli cholimning oldiga qanday boraman, begona erkakka qo'limni ushlatib qo'ydim"²-deb, o'zini rosa koyigan ekan.

Rossiya Federatsiyasida ishlab yurgan musofir yurtdoshlarimiz orasida COVID-19 infeksiyasi bilan kasallanib vafaot etgan bir mahalladosh yigitni

¹ Ro'ziyev SH Ma'naviy immunitet manbalari Toshkent 2008 B-42

² Ro'ziyev SH Ma'naviy immunitet manbalari Toshkent 2008 B-44

ayanan shu tumandan ishlayotgan o'zbeklar "O'ligi o'zga yurtlarda qolmasin" deyishib, pul yig'ib jo'natishganda oila a'zolarining duosini olishganiga guvoh bo'lgandim. Aytishlaricha: O'z oilangda, mahallangda, vatanningda yurganingda o'zligingdan faxr tuyg'usini his etmasligi mumkin ammo o'zga yurtda bir millat vakillarining bir-biriga mehri bo'lakcha bo'lishligi, o'zligidan millatidan faxr tuyg'usi yuqori bo'lishi ko'p hollarda ko'zga tashlanar ekan. Hozirda milliylikimizga, o'zimizga xosligimizni belgilovchi qadriyatlarimizga, inson hayotining juda go'zalligini, odilligini va oqilligini ta'minlovchi axloq normalarimizga qarshi pinhona hurujlar bo'layotgani sir emas.

Ular avvaliga ibo- hayoni, so'ngra uyatni yo'qotadi. Iffatni yo'qotgan qizga berilgan dashnomni odamning erkini bo'g'ishga qaratilgan hujum deb baholab, inson huquqlari bug'ilayabdi deb jar soladilar³. Shu bois, har qanday holda ham biz o'z axloqiy me'yorlarimiz asosiga qurilgan milliy ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz zarur. Bugungi yosh avlodni tarbiyalashda udum, odat, uruf- an'analar katta o'rin egallashi lozim. Bunda biz muddarislar ota-onaga hurmat-e'tiborni, milliy urf-odatlariga qat'iy amal qilmoqni, kishilarning ijtimoiy himoya etmoqni yosh avlod ongiga singdirib bormog'imiz kerak. Xitoy faylasufi Konfutsiy yuqoridagi jihatlarni olavga qiyoslaydi. Olovdan noto'g'ri foydalanilsa insonni o'ziga zarar yetkazgani kabi, urf-odat an'analarimiz noto'g'ri talqin qilsak, zamonaviylikni urf-odatga aylantirsak jamiyat sekin astalik bilan yemirilib boradi.

O'tmishda imonsiz odamning el orasida hurmati bo'lmagan. Insofsizga yomon nazar bilan qaralgan. Diyonatsiz kishi bilan hech kim quad-anda bo'lmagan. Ibo, hayosini yo'qotgan qizga sovchi kelmagan. G'ururini yo'qotgan kishi er sanalmagan. Vadaga vafo qilmaganlar subitsiz chiqqan. Sadoqatga soya solganlarga imi jimida javob berilgan. Lavzi yo'q kishilar bilan munosabatga kirishilmagan. Shuning uchun ushbu fazilatlar har birini asrab avaylash biz

³ Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021. B-111

insonlar uchun ma'sulyatli burch hisoblangan. Zero, biz ulardan qaysi birini yo'qotsak avvalo o'zligimizning bir parchasini yo'qotamiz, himoyasiz qolamiz⁴

Hozirgi yosh avlod juda zehinlidir. Ularga oddiy gaplardan ko'ra amaliyot muhimdir. Biz kattalar aytilgan so'zlarimizga amal qilgan holda ma'naviy targ'ibot jarayonida o'zimiz na'muna ko'rsata bilsak, ularni ishonchini qozonib ortimizdan ergashtira olamiz. Ayniqsa telekommunikatsiya rivojlangan zamonda mintaqaviy axloqiy normalarni bizga juda tez kirib kelmoqda. Bu jarayonni biz sunniy ravishda to'xtata olmaymiz. Shuning uchun ularning ma'naviyatidan ham yaxshi taraflarini o'zlashtirib, yomon taraflaridan uzoq bo'lishimiz kerakligini yoshlarga tushuntira bilishimiz zarur.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksaib bormasa, mustaqilligimizning, davlatimizning ma'naviy zamini mustahkam bo'lmaydi. Chunki milliy ong mustaqillikka yo'nalish beradi, xalqni yakdil hamjihat qiladi. Mamlakatning ravnaqi iqtisodiy zamin bilan bir qatorda fuqarolarning birligini ham ta'lab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" T. O'zbekiston, 1999
- 2.. Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021.
3. Ro'ziyev SH Ma'naviy immunitet manbalari Toshkent 2008

⁴ Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" T. O'zbekiston, 1999